



**Renessans ta'lim universitetini
2030-yilgacha rivojlantirish
KONSEPSIYASI**

Toshkent – 2025

1-bob. Umumiy qoidalar

Renessans ta'lim universitetida ilg'or ta'lim modellari va texnologiyalariga asoslangan holda ta'lim sifatini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari uchun raqobatbardosh, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni konseptual yondashuvini belgilash maqsadida ushbu konsepsiya ishlab chiqildi.

Renessans ta'lim universitetini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda – Konsepsiya) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risidagi global konvensiyani (Parij, 2019-yil 25-noyabr) ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son, "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son, "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublikada nodavlat ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2025-yil 30-iyundagi 403-son va "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarorlari va "Renessans ta'lim universiteti" MChJ Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

Konsepsiya universitetda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari, mehnat bozori va ish beruvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'lim, ilm-fan, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Konsepsiya Renessans ta'lim universitetini "innovatsiya-sifat-istiqbol" tamoyili asosida "Universitet 5.0" modeliga bosqichma-bosqich o'tishi uchun rivojlanishning strategik maqsadlari, vazifalari hamda qisqa, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi 5 yillik strategik rejasi hamda ta'lim tashkiloti faoliyatiga oid boshqa muhim masalalar va asosiy ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi.

2-bob. Ta'lim-tarbiya va ilm-fanni rivojlantirishning umumiy tendensiyalari va xususiyatlari

Bugungi kunda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ishlab chiqarish, sun'iy intellekt hamda raqamli texnologiyalar sohalarida yuz berayotgan shiddatli o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi va xalqimiz oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda.

Dunyoda yuz berayotgan globallashuv va murakkab jarayonlarni hamda mamlakatimizni rivojlanish holatini tahlil qilgan holda xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi.

Xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning aksariyat rivojlangan mamlakatlari tomonidan 2030-yilgacha belgilangan ta'lim konsepsiyalarida ta'lim sifatini va amaliyot bilan integratsiyasini ta'minlash orqali mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash dolzarb vazifa etib belgilangan.

XXI asrda ilm-fan va innovatsiyalar asosida rivojlanayotgan dunyo sivilizatsiyasi kontekstida rivojlangan mamlakatlar o'z ta'lim tizimini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish va ta'lim sohasida yetakchilikni qo'lga kiritishga harakat qilmoqda.

Ushbu raqobat sharoitida inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi, zamonaviy mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish hamda ta'lim sifatini oshirishga asos hisoblangan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi va Ta'lim to'g'risidagi Qonuni qabul qilindi.

Natijada hozirgi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalari umumiy soni 227 taga yetdi. Bu ko'rsatkich 2015/2016-o'quv yilidagi 69 taga nisbatan 158 ta yoki 3,2 barobarga oshganligini ko'rsatadi. Tahsil olayotgan talabalarning umumiy soni 1 mln 432,8 ming nafarni tashkil etib, ularning 13 ming 19 nafari chet ellik talabalar hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichlar mamlakatimiz ta'lim sohasida boshlangan tub islohotlar hamda xalqaro maydonga chiqishga qaratilgan intilishlarni yaqqol namoyon etmoqda.

Mamlakatimiz ta'lim sohasidagi tub o'zgarishlar iqtisodiy, ijtimoiy, geosiyosiy, madaniy va texnologik omillarni hisobga olgan holda xalqaro standartlar asosida butunlay yangi ta'lim ekotizimini shakllantirishni taqozo etadi.

Shu maqsadda ishlab chiqilgan ushbu Konsepsiyaning asosiy maqsadi Renessans ta'lim universitetini 2030-yilgacha O'zbekistonda TOP-10 talik, Markaziy Osiyoda TOP-30 talik, dunyoning TOP-1000 talik universitetlari reytingidan o'rin olishini ta'minlashdan iborat.

Konsepsiya doirasida universitet ta'lim tizimini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish, mintaqaviy hamda global ta'lim almashinuv dasturlarini rivojlantirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish, shuningdek Renessans ta'lim universitetining xalqaro ta'lim hamjamiyatida nufuzli o'rin egallashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish nazarda tutiladi.

Ushbu Konsepsiya universitetimizning ta'lim sohasidagi strategik rivojlanish yo'lidagi maxsus yo'l ko'rsatuvchi hujjati sifatida universitetning tarkibiy bo'linmalari, fakultet va kafedralari uchun amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

3-bob. Universitet faoliyatining asosiy maqsadi va qadriyatlari

Asosiy maqsad – innovatsiyalarni keng joriy etish va sifatli ta'limni yo'lga qo'yish orqali istiqbolli, raqobatbardosh, mas'uliyatli mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Bunda:

- universitet 2030-yilgacha O'zbekiston va Markaziy Osiyoda intellektual uyg'onishning yangi davrini boshlab beruvchi yetakchi akademik markazga aylanishga intiladi;

- “innovatsiya-sifat-istiqbol” – bizning har bir qarorimiz, tashabbusimiz va strategik yo'nalishimizning mazmuniga aylanadi;

- 2030-yilga borib O'zbekistonda TOP-10, Markaziy Osiyoda TOP-30, dunyoning TOP-1000 universitetlari reytingiga kiradi.

Asosiy qadriyatlar:

Akademik halollik va ilmiy tadqiqot erkinligi – ilmiy va ta'lim jarayonlarida halollik, etik me'yorlarga rioya qilish hamda erkin, mustaqil va xolis ilmiy izlanish olib borishni ta'minlash.

Oydinlik – ilm, ma'rifat va tanqidiy tafakkur orqali uyg'onish va yuksalish hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilish.

Yangi g'oya, innovatsiya va tashabbuslarga ochiqlik – ilg'or g'oyalarni rag'batlantirish va ularni amaliyotga tatbiq etishga tayyor bo'lish.

Qiziquvchanlik va yaratuvchanlik – bilimga chanqoqlik, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv orqali yangi yechimlar izlash.

Ijtimoiy mas'uliyat – jamiyat manfaatlarini inobatga olgan holda bilim va salohiyatni ijtimoiy taraqqiyot yo'lida safarbar etish.

4-bob. Ta'lim, ilm-fan sohasidagi joriy holat va asosiy vazifalar


“Renessans ta'lim universiteti” MCHJ (keyingi o'rinlarda – Renessans ta'lim universiteti) 2022-yil 18-oktabrdan №715272-sonli litsenziya asosida nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Hozirgi kunda universitetda 31 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 4 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha talabalar tahsil olmoqda. Universitet faoliyati Toshkent shahrining Shayxontohur tumani (Charxnovza MFY Oqtepa dahasi 17-uy), Yunusobod tumani (Posira MFY, Bog'ishamol ko'chasi, 220-uy) hamda Olmazor tumani (Orzu MFY Beruniy ko'chasi 2-“b” uy) hududlarida amalga oshirilmoqda. Universitet tarkibida Toshkent shahrida joylashgan 3 ta kampus mavjud bo'lib, kampus binolarining umumiy maydoni 14 757 kvadrat metrni tashkil etadi.

Universitetning barcha kampuslarida muntazam xavfsizlik xizmati, axborot resurs markazi, tibbiy xizmat ko'rsatish burchagi, lift mavjud. Barcha o'quv xonalarga audio-vizual uskunalar o'rnatilgan. Barcha kampuslar hududida bepul internet tarqatilgan. Universitetda 16 ta kompyuter xonasi mavjud bo'lib, 700 dan ortiq kompyuter, monoblok va noutbuk mavjud. Axborot-resurs markazi (ARM) jami 170 000 dan ortiq kitob va materiallar to'plami bilan ta'minlangan. Universitet zamonaviy sport majmuasiga ega, ushbu ochiq va yopiq sport komplekslarida barcha qulayliklar yaratilgan.

Hozirgi kunda universitetda mashinasozlik, tibbiyot, neft-gaz hamda geologiya sohalari bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 15 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha Part-time ta'lim shaklini tashkil etish, 15 ta mutaxassislik bo'yicha magistratura hamda 5 ta ixtisoslik bo'yicha doktorantura faoliyatini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan. Mazkur yo'nalish va mutaxassisliklar bo'yicha o'quv rejalar va o'quv dasturlari o'z ichiga olgan tegishli normativ-hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, hozirda belgilangan tartibda kelishish va tasdiqlash bosqichida turibdi.

Universitetda 3 ta fakultet va uning tarkibida 10 ta kafedra mavjud. Kafedralarda jami 218 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda. Hozirgi

kunda universitetda ilmiy darajalilar soni 132 nafar (jumladan, fan nomzodlari, PhD – 103 nafar; fan doktorlari DSc – 29 nafar), ilmiy salohiyat 61%ni tashkil etadi.



Shu kunga qadar universitetning 10 nafar iqtidorli talabasi nomli stipendiyalarga sazovor bo'ldi: 1 nafari Prezident davlat stipendiyasi, 2 nafari Islom Karimov nomli, 5 nafari Alisher Navoiy nomli, 1 nafari Zahiriddin Muhammad Bobur nomli, 1 nafari Pahlavon Mahmud nomli stipendiyasi.

2025/2026 o'quv yilida nomli stipendiyalarga nomzod bo'lgan 177 nafar iqtidorli talabalar yetakchi professor-o'qituvchilarga birlashtirildi.

Universitet talaba yoshlari uchun barcha yo'nalishda 24 ta klub va to'garak faoliyati yo'lga qo'yilgan.

2025-yilda "Akademiklar bilan uchrashuv" rukni ostida 11 nafar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi bilan uchrashuv o'tkazilgan hamda "Akademik darsi" loyihasi tashkil etildi.

Universitetda 2025-yilda 4 ta xalqaro, 5 ta respublika konferensiyasi o'tkazildi. Xalqaro konferensiyalarga 200 dan ortiq xorijiy, 1835 nafar respublika miqyosidagi ishtirokchilar qatnashdi. Ushbu konferensiyalarga jami 4100 dan ortiq maqolalar kelib tushgan bo'lib, ularning barchasi elektron to'plam shaklida nashr etilgan.

Konferensiya doirasida Xitoy, Rossiya, Italiya, Turkiya, Finlyandiya, Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston davlatlarining 36 ta universiteti bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, Amerika texnologiyalar universiteti, Nordik xalqaro universiteti, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Xitoy Xalq Respublikasidagi Pekin Politexnika universiteti, Sian Transport universiteti, Shinjon universiteti, Shinjon kasb-hunar universiteti, Pekin texnologiya va kasbiy texnika universiteti, Chjeszyan elektro-mexanika kasbiy-texnika instituti, Pekin sanoat kasbiy-texnika instituti, Xebey moliya instituti, Guyan-Anshun instituti hamda Nankin texnologiya kasbiy-texnika instituti bilan hamkorlik

doirasida xodim va professor-o'qituvchilar uchun stajirovka hamda malaka oshirish, talabalar uchun akademik mobillik dasturlari yo'lga qo'yildi.

Xususan, 2025-yilda qisqa muddatli (2-8 hafta) akademik mobillik dasturlari doirasida Pekin texnologiya va kasbiy texnika universitetida robototexnika, sun'iy intellekt va smart ishlab chiqarish, Pekin sanoat kasbiy-texnika institutiga qurilish texnologiyalari, sanoat dizayni va servis, Xebey moliya institutiga bank ishi, FinTech va raqamli moliya, Guyyan-Anshun institutiga turizm, ekologiya va hududiy boshqaruv yo'nalishlari bo'yicha ilg'or amaliy tajriba hamda zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish maqsadida 70 nafar talaba yuborildi.

2024-2025-yillar davomida universitetning ko'plab professor-o'qituvchilari xorijiy oliy ta'lim muassasalarida stajirovka o'tashdi. Jumladan, 2024-yilda Qozon federal universiteti (Rossiya)da 3 nafar, Zhejiang sanoat politexnika kolleji (Xitoy)da 2 nafar hamda Prime Education (Finlandiya)da 7 nafar professor-o'qituvchi stajirovka o'tadi. 2025-yilda esa Belarus milliy texnika universiteti (Belorus)da 2 nafar, Turkmaniston xalqaro universiteti (Turkmaniston)da 2 nafar, Balikesir universiteti (Turkiya)da 20 nafar, Xinjiang universiteti (Xitoy)da 4 nafar, Assumption universiteti (Tailand)da 2 nafar hamda Kyongdong universiteti (Janubiy Koreya)da 1 nafar professor-o'qituvchi malaka oshirdi, stajirovkadan o'tdi.

Bundan tashqari, Turkiyaning 3 ta universiteti bilan magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qo'shma ta'lim dasturini tashkil qilish maqsadida me'yoriy hujjatlar tayyorlanib, hamkor universitetlarga yuborildi.

Indoneziyaning nufuzli UI GreenMetric World University Rankings xalqaro reyting agentligining 2025-yilda e'lon qilgan natijalariga ko'ra Universitet 190 pog'ona yuqorilab, 1258 o'rinni qayd etilgan.

2025-yilda 40 ta monografiya, 8 ta Scopus va WoS bazalaridagi, 343 ta OAK bazasidagi jurnallarda, shuningdek, 353 ta turli xalqaro jurnallarda maqolalar nashr etilgan. Xalqaro konferensiyalarda 810 ta, respublika konferensiyalarda 833 ta tezislar e'lon qilingan.

Bugungi kunda h-indeksi ko'rsatkichi 1-4, shuningdek, 5 bo'lgan professor-o'qituvchilar soni 39 nafarni, 5 dan yuqori bo'lganlar soni esa 11 nafarni tashkil etadi.

Shuningdek, hozirgi kunda oliy ta'lim tizimida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili mazkur sohada hali ham o'z yechimini kutayotgan qator dolzarb muammolar va ustuvor vazifalar mavjud ekanini ko'rsatmoqda. Jumladan:

iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qamrab olish darajasi pastligicha qolmoqda;

kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchilar bilan o‘zaro hamkorlikda kadrlar tayyorlash bo‘yicha ishlar yuqori saviyada tashkil etilmayapti;

ishlab chiqarish korxonalari, tashkilotlar, raqamli va yashil iqtisodiyotga asoslangan ish o‘rinlarida amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish ishlari to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan;

mashg‘ulotlarda professor-o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan hamda zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘lami yetarli emas;

chet tili o‘qituvchilaridan tashqari boshqa soha professor-o‘qituvchilarning xorijiy tillarni bilish darajasi pastligi sababli to‘liq chet tillarida o‘qitiladigan guruhlar faoliyati yo‘lga qo‘yilmagan, chet ellik talabalar soni kamligicha qolmoqda;

xorijiy va zamonaviy ilmiy-tadqiqotlar natijalari va adabiyotlardan qo‘shimcha yoki muqobil o‘quv adabiyotlari sifatida foydalanish ishlari yetarli darajada tashkil etilmagan;

innovatsion faoliyat, ilmiy tadqiqot natijalarini va Startap loyihalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish darajasi yetarli emas;

professor-o‘qituvchilarning ilmiy ishlari natijalarini nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarda iqtibos keltirish darajasi pastligicha qolmoqda;

professor-o‘qituvchilar tomonidan respublika va xalqaro miqyosdagi grant va loyihalar, tanlovlarga qatnashish ko‘rsatkichi past;

mavjud talabalar turar joylari hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlarini yanada rivojlantirish ehtiyoji mavjud;

moliyaviy daromadlarning asosiy qismi talabalar kontrakt tushumidan bo‘lib, loyihalar, grantlar, boshqa xizmatlardan mablag‘ izlab topish darajasi pastligicha qolmoqda.

5-bob. Ta‘lim, ilm-fan tizimini takomillashtirishning asosiy prinsiplari va vazifalari

Innovatsiyalarni keng joriy etish va sifatli ta‘limni yo‘lga qo‘yishdan maqsad xalqaro mehnat bozori va raqamli iqtisodiyot sharoitida faoliyat ko‘rsata oladigan istiqbolli, raqobatbardosh, mas‘uliyatli mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Yaqin va uzoq muddatli istiqboldagi maqsadlardan kelib chiqib, universitetni rivojlantirish konsepsiyasi quyidagi asosiy prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik va demokratik xususiyatga egaligi hamda ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

universitetda har bir talabaga bilim, qobiliyat va iste'dodini rivojlantirish imkoniyatlari yaratilganligi;

ta'lim va tarbiya jarayoniga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;

“Universitet 5.0” modeliga o'tish, raqamli iqtisodiyot va bilimlar jamiyati sharoitida mehnat bozorida raqobatbardosh, moslashuvchan, kompetentli va texnologik savodxon mutaxassislarni tayyorlash.

Ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari quyidagilardan iborat:

“Universitet 5.0” modeli bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini real sektor ehtiyojlariga moslashtirib, ularning bandligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ushbu model ta'lim, ilm-fan, innovatsiya, ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish va barcha jarayonlarda sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalardan foydalanishni bir butun ekotizim sifatida uyg'unlashtiradi.

Buning natijasida:

universitet ta'lim + ilm-fan + innovatsiya + ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish + sun'iy intellekt integratsiyalashgan aql va madaniyat markaziga aylanadi;

jamiyat va iqtisodiyot ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlanadi;

universitet hududiy va milliy rivojlanishning drayveri sifatida namoyon bo'ladi.

Yaqin va uzoq muddatli istiqboldagi maqsadlardan kelib chiqib, universitetni rivojlantirish jarayoni quyidagi asosiy ustuvor vazifalar asosida amalga oshiriladi:

universitetni ta'lim klasteriga – “Renessans ta'lim klasteri”ga aylantirish orqali uzluksiz ta'lim ekotizimini yaratish;

universitetda ta'lim, ilm-fan va boshqaruv jarayonlarida sun'iy intellekt yechimlarini ishlab chiqish;

talabalar va olimlarni amaliy sun'iy intellekt loyihalarida faol ishtirok etishga jalb qilish hamda universitetning raqamli transformatsiyasini tezlashtirish maqsadida Sun'iy intellekt va raqamli innovatsiyalar laboratoriyasi (AI & Digital Innovation Lab)ni tashkil etish;

ta'limning muqobil shakllari, jumladan masofaviy ta'limni rivojlantirish, barcha ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv kontentini tayyorlash, ta'limni boshqaruv

tizimlari (LMS- Learning Management System), KPI tizimi, Universitet dars jadvali, “New-Admission” (qabul), “Raqamli kutubxona” platformalarining zamonaviy tizimini ishga tushirish;

mahallalar, maktablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari muntazam ravishda yoshlarni keng jalb qilishga yo‘naltirilgan keng targ‘ibot ishlarini olib borish.

Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, universitetni rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlar asosida amalga oshiriladi:

qabul ko‘rsatkichlarini kengaytirish, oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;

ta‘lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;

ilmiy tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;

ma‘naviy-ma‘rifiy va tarbiyaviy ishlar ta‘sirchanligini oshirish;

yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;

universitetning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, moddiy-texnik ta‘minotini mustahkamlash;

universitetni tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish.

Qabul ko‘rsatkichlarini kengaytirish, oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish yo‘nalishi doirasida:

ta‘lim jarayonini “kompetensiya + amaliyot + raqamli ko‘nikma” modeli asosida modernizatsiya qilish;

universitetning quvvati, ilmiy salohiyati va boshqa asosiy ko‘rsatkichlaridan kelib chiqqan holda to‘lov-kontrakt asosidagi qabul parametrlarini yildan-yilga o‘zlashtirish dinamikasini maqsadli ko‘rsatkichlar asosida belgilash;

o‘quv dasturlari ish beruvchilar bilan hamkorlikda qayta ishlab chiqish;

dars jarayonlarida case-study, loyiha ishlari, simulyatsiyalar, interaktiv metodlardan foydalanish;

mustaqil ta‘lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta‘lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish;

o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish;

o‘quv jarayoniga xalqaro ta‘lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarini keng joriy etish

(Adaptiv (moslashuvchan) ta'lim texnologiyalari, AI Tutor / Chatbotlar (aqlli tutor va virtual yordamchilar), Learning Analytics va prognozlash (ta'lim ma'lumotlarini tahlil qilish), avtomatik baholash va tekshirish tizimlari);

universitetni Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi "ta'lim xabi"ga aylantirish;

talabalar bilimini baholash tizimi texnologiyalarini takomillashtirib borish va xolisligini ta'minlash, jumladan, baholashning talabalar bilan bevosita aloqasiz shakllari LMS (Moodle, Canvas va boshqalar), Portfel (e-portfolio) asosida baholashga to'liq o'tilish;

fanlarni o'zlashtirishda talabalar orasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida kompetensiyaga asoslangan baholash, gamifikatsiya, fanlararo musobaqalar, ilmiy va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish;

ilg'or xorijiy tajribalar asosida universitetdagi yuqori malakali pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini (Continuous Professional Development – CPD) joriy etish;

Universitetga tashqi investitsiyalarni jalb qilgan holda nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari (Buyuk Britaniyaning Grinvich universiteti, Xitoyning Urumchi kasb-hunar universiteti, Anshun universiteti, Xinjiang universiteti, Tianjin texnologiya universiteti, Turkiyaning Ankara, Hacı Bayram Veli universiteti, Karabük universiteti, Bandırma Onyedi Eylül universiteti, Balıkesir universiteti, Rossiyaning Kazan federal universiteti va boshqalar) bilan qo'shma ta'lim dasturlari va ularning filiallarini tashkil etilish;

ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha xorijiy tillarda o'qitiladigan mutaxassislik fanlari salmog'ini dinamik oshirib borish;

o'quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish tartibini soddalashtirish, eng yangi xorijiy adabiyotlarni xarid qilish va tarjima qilish ishlarini jadallashtirish, xorijiy adabiyotlardan qo'shimcha yoki muqobil o'quv adabiyotlari sifatida foydalanishni kengaytirish, kutubxonalar fondlari muntazam ravishda yangilab borish ("Raqamli kutubxona" onlayn dasturi yaratiladi);

universitetda dars mashg'ulotlari bo'yicha talabalar fikrini o'rganish (feedback) hamda o'zaro tashrif (peer review) tizimini rivojlantirish asosida talabalarga ta'lim xizmatlari ko'rsatish sifatini takomillashtirish;

yuqori malakali professor-o'qituvchilar, soha olimlarini ta'lim jarayoniga jalb qilishning samarali mexanizmlarini (Visiting & Adjunct Professor Program) yaratish hamda muayyan ko'rsatkichlar asosida ularning faoliyatini baholab borish;

milliy va xalqaro oliy ta'lim muassasalariaro (Inbound–Outbound Academic Mobility Framework, Kredit Transfer & Recognition System – ECTS-based, oint Education & Research Mobility Program) akademik mobillik dasturlarini, o'zaro tajriba almashish mexanizmlarini joriy etish;

ta'lim berishda yuqori sifatni ta'minlash maqsadida ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, bu borada ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilish;

universitetda shaffoflik, xolislik va obyektivlikni ta'minlash, korrupsiyaga sharoit yaratuvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

xalqaro aloqalar natijadorligini tahlil qilib borish, qo'shma dasturlar samaradorligini baholash, hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish, chet ellik professor-o'qituvchilar va xorijdagi vatandoshlarni jalb etish;

ta'lim sifatini yaxshilash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini jadallashtirish.

Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish yo'nalishi doirasida:

ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "Blended learning", "Flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga joriy etish;

universitetning konferensiya materiallari, bitiruv malakaviy ishlar, magistrlik va doktorlik, dissertatsiyalaridan iborat ilmiy-texnik ma'lumotlarning elektron bazasini yaratish;

boshqaruv tizimi va o'quv jarayonlari, ARM va hujjatlar aylanmasini elektronlashtirishni ta'minlovchi "RTU elektron universitet" platformasiga bosqichma-bosqich o'tish, ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilishning elektron tizimini joriy etish;

universitet pedagog xodimlari, bakalavriat, magistratura talabalari va doktorantlariga oid ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi va muntazam yangilanib boruvchi elektron baza (Student Record System) yuritilishini yo'lga qo'yish;

universitetdagi o'quv-uslubiy, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, shuningdek davlat interaktiv xizmatlari ko'rsatishga doir ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan va muntazam yangilanib turadigan

universitetning yagona axborot platformasi – “RTU boshqaruvi axborot tizimi”ni ishga tushirish, unda vakant o‘rinlarga o‘tkazilayotgan tanlovlarga oid e‘lonlarni hamda arizalarni onlayn qabul qilish imkoniyatlarini yaratish;

o‘quv jarayonlari uchun o‘rnatilgan kompyuter va boshqa qurilmalardan o‘quv binolari hamda auditoriyalarda to‘liq va samarali foydalanishni ta‘minlash.

Universitetda ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish yo‘nalishi doirasida:

universitet kafedralarining ilmiy salohiyatini kamida 60 foizga yetkazish, jumladan, mutaxassislik chiqaruvchi kafedraning ilmiy salohiyatini 80 foizga chiqarish, har yili kamida 10 nafar professor-o‘qituvchilarning dissertatsiya himoya qilishlariga erishish (3 nafar fan doktori (DSc), 7 nafar falsafa doktori (PhD);

universitetda mehnat bozori talablari, sanoatning ustuvor yo‘nalishlari hamda texnologik taraqqiyotning zamonaviy tendensiyalarini inobatga olgan holda yuqori talabga ega va strategik ahamiyat kasb etuvchi muhandislik ta‘lim yo‘nalishlarini bosqichma-bosqich joriy etish rejalashtirilmoqda. Xususan, elektr energetikasi va qayta tiklanuvchi energiya muhandisligi (quyosh va shamol energetikasi, energiya samaradorligi hamda “yashil” texnologiyalar), mexatronika va robototexnika muhandisligi (sanoat robotlari, avtomatlashtirilgan tizimlar, aqlli ishlab chiqarish), avtomatlashtirish va boshqaruv tizimlari muhandisligi (SCADA, PLC, Sanoat 4.0 texnologiyalari), mashinasozlik muhandisligi (raqamli ishlab chiqarish, CNC, CAD/CAM/CAE), shuningdek konchilik muhandisligi hamda neft-gaz muhandisligi yo‘nalishlari bo‘yicha ta‘lim dasturlarini ochish;

universitetda ixtisosliklar bo‘yicha doktorantura faoliyatini yo‘lga qo‘yish, jumladan, 13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari), 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa, 23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar, 10.00.01 – O‘zbek tili, 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosliklari;

iqtidorli talabalarni saralab olish, ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bazasini yaratish va yangilash, ilmiy-innovatsion faoliyat jarayonlariga jalb qilishning samarali tizimini ishga tushirish;

har yili kamida 100 nafar talabani respublika va xalqaro fan olimpiadalariga tayyorlash va ishtirokini ta‘minlash, bunda kamida 10 ta sovrinli o‘rinni qo‘lga kiritish, 10 nafar iqtidorli talabaning nomli davlat stipendiyalarini qo‘lga kiritishiga erishish, universitet bakalavriat bitiruvchilarining kamida 5 foizini magistratura bosqichiga jalb etish;

universitetning ilmiy salohiyatini iqtisodiyot tarmoqlari va ishlab chiqarishning ilmiy va texnologik muammolarini hal etishga yo'naltirish, har o'quv yilida kamida 10-20 ta ilmiy-tadqiqot loyihalari (grant)ni xalqaro va mahalliy tanlovlarga taqdim etish;

har o'quv yilida ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini tijoratlashtirish, samaradorligini oshirish, 100 dan ortiq tijorat shartnomalarini ishga tushirish orqali yillik tijoratlashtirish miqdorini 5 milliard so'mga yetkazish;

universitet professor-o'qituvchilari, doktorant va magistrantlarning xalqaro tan olingan nashrlarda (Scopus, Web of Science va boshqa) maqolalar e'lon qilish va rasmiylashtirish darajasini oshirish hamda har yili kamida 200 ta Scopus, Web of Science bazasidagi jurnallarda maqolalar e'lon qilinishiga erishish;

universitetning "Renessans ta'lim xabarleri" ilmiy jurnali faoliyatini yanada samarali yo'lga qo'yish, OAK ro'yxatiga kiritish, shu bilan birga Digital Commons dasturiy platformasidagi xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich indeksatsiyalanishiga erishish;

2030-yilgacha har o'quv yili davomida kamida 1 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi konferensiya, seminar va forumlarni yuqori saviyada tashkil etish;

universitetdagi 3 ta fakultet negizida kamida 3 ta laboratoriya, ilmiy tadqiqot markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish;

fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, mavjud ilmiy maktablarni saqlab qolish va yangilarini yaratish, ularning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, bunda iqtidorli yoshlarning ilm-fanga keng jalb etilishini rag'batlantirish;

xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga kiruvchi nufuzli ilmiy jurnallarda maqolalar nashr qiluvchi, h-indeks yuqori bo'lgan olimlar, professor-o'qituvchilar hamda yosh ilmiy izlanuvchilarni universitet mablag'lari hisobidan moddiy rag'batlantirib borish tizimini joriy etish;

universitetning ilm-fan sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining tegishli institutlari hamda nufuzli xorijiy oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari bilan faol hamkorligini yo'lga qo'yish;

universitetning Yoshlar akademiyasi hamda Fan va texnologiyalar bo'yicha respublika kengashi bilan hamkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirib borish;

Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish yo'nalishi doirasida:

“Renessans ta’lim universiteti: innovatsiya, sifat va istiqbol” g’oyasi ostida har o‘quv yili davomida zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amaliyotga tatbiq etish;

universitetda yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, yoshlarning intellektual salohiyati, tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalq manfaatlari uchun xizmat qilish tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlod sifatida tarbiyalashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amaliyotga joriy etish;

universitetda sportni qadriyat sifatida rivojlantirish orqali talabalarning “Besh tashabbus”, “Talabalar ligasi”, “Universiada” sport musobaqalari, Osiyo va jahon chempionatlarida faol ishtiroki ta’minlash, musobaqalarda universitet sport jamoalari va sportchi talabalari tomonidan yetakchi o‘rinlarni qo‘lga kiritish choralari ko‘rish, professor-o‘qituvchilar, talabalar va xodimlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

imkoniyati cheklangan talabalarning ijtimoiy moslashuvi uchun keng sharoitlarni yaratish, inklyuzivlik g‘oyalarini targ‘ib qilish;

yoshlar tarbiyasida ota-ona, mahalla va universitet o‘rtasidagi uzviy aloqa tizimi Hamkorlik pedagogikasi asosida yanada rivojlantirish, Universitet ota-onalar Kengashini “universitet – talaba – ota-ona – jamiyat – ustoz” birligini amalga oshirishda mustahkam ko‘prik, muloqot maydoniga aylantirish;

Yoshlar ittifoqining universitet boshlang‘ich tashkiloti, xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahat Kengashi kabi jamoatchilik tuzilmalari faoliyatini takomillashtirish, ish samaradorligini oshirish;

universitetda pedagogik-psixologik xizmat guruhlari ishini takomillashtirish, talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilani mustahkamlash borasidagi targ‘ibot ishlarini kuchaytirish;

talaba-yoshlarni mutaxassislik bilan birga qo‘shimcha kasb-hunar o‘rganishi, yangi bilim egallashi, o‘z ustida ishlashi, zamonaviy texnologiya yutuqlaridan maqsadli foydalanishi, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga undash, badiiy, ijodiy va sport to‘garaklari orqali ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish uchun yanada kengroq shart-sharoitlar yaratish;

talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususan, “Kafedra kunlari”, “Salomatlik uchun

5000 qadam”, “Ijodkor talaba”, “Bog‘larga tashrif kuni”, “Profilaktika kuni”, “Besh tashabbus kuni”, “Muzey hamda tarixiy joylarga tashrif kuni” kabi qator loyihalarni amalga oshirish;

turli mavzulardagi davra suhbatlari, uchrashuvlar, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, “Kino kunlari”, “Zakovat”, “QVZ”, “Munozara”, “Talant shou” kabi loyihalarida talabalarning faol ishtirokini ta’minlash;

Vatanimiz istiqboli yo‘lida birlashtirish maqsadida “jaholatga qarshi – ma’rifat, g‘oyaga qarshi – g‘oya bilan kurashish zarur” degan tamoyilga asoslangan holda tizimli tarbiya ishlarini tashkil etish, talaba-yoshlarni turli axborot xurujlari, yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolishi, giyohvandlik, narkojinoyat va turli ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishi holatlarining oldini olish;

ijtimoiy, psixologik va boshqa muammolari bo‘lgan talabalar bilan manzilli ishlash, bu borada tyutorlar va professor-o‘qituvchilarning rolini kuchaytirish, talabalarda uchraydigan muammolar yechimiga qaratilgan muloqot platformalarini yaratish;

raqamli texnologiyalaridan unumli foydalangan holda kitobxonlik va mutolaa madaniyatini keng targ‘ib etish, talabalar o‘rtasida kitobga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish ishlarini takomillashtirish, turli kitobxonlik ko‘rik-tanlovlari va ko‘rgazmalar tashkil etish;

universitetning umumta’lim maktablari bilan o‘quvchi-yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini shakllantirish, huquqiy savodxonligini oshirish, kasbga yo‘naltirish va mustaqil hayotga tayyorlash kabi masalalarda hamkorligini rivojlantirish.

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish yo‘nalishi doirasida:

hamkorlar bilan birgalikda universitet talabalarini va bitiruvchilarni ish beruvchilar va kadrlar buyurtmachilarining tashkilotlarida, xalqaro korxonalarda, shu jumladan, Xitoy Xalq Respublikasining “FESCO” va Turkiya Respublikasining “TICA” kompaniyalarida, shuningdek mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan boshqa xorijiy korxonalarda amaliyot (stajirovka) o‘tashi va mehnat faoliyatini davom ettirishini yo‘lga qo‘yish;

ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, o‘quv rejalari va dasturlari mazmuni hamda mutaxassislik fanlarining mazmunini kadrlar buyurtmachilari bilan hamkorlikda fan va texnologiyalarning so‘nggi yutuqlari asosida shakllantirish;

talabalarning tegishli soha bo'yicha ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarda ta'lim jarayonidan tashqari vaqtda mehnat faoliyatini olib borishlariga shart-sharoit yaratish;

ilmiy-texnik buyurtma va grantlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishda mavjud muammolarga yangicha yechim topish, tajribali amaliyotchilarni o'quv jarayoniga faol jalb qilish, ta'limda ishlab chiqarish infratuzilmasi va amaliy misollardan keng foydalanish kabi yo'nalishlarda universitetning ishlab chiqarish korxonalari, tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish;

ishlab chiqarish korxonalarida mutaxassislik kafedralari filiallari, universitet huzurida ishlab chiqarish korxonalari tarkibiy bo'linmalarini, texnoparklar, biznes inkubatorlar, "Ko-working (hamkorlik ish) markazlari" faoliyatini tashkil etish, texnologiyalar transferini amalga oshirish orqali ta'limning ishlab chiqarish bilan samarali hamkorligini yo'lga qo'yish;

pedagog xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida malaka oshirish tizimini joriy etish, shuningdek, ishlab chiqarishda katta tajribaga ega, biroq ilmiy darajasi bo'lmagan mutaxassislarni ta'lim jarayoniga, jumladan, taklif etilgan va faxriy o'qituvchi sifatida jalb etishning ta'sirchan mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish (bunda ushbu mutaxassislar muayyan sohadagi stajiga muvofiq tegishli lavozimlarga ishga qabul qilinadi);

kadrlar buyurtmachilari murojaati asosida universitet bazasida ishlab chiqarishdan tajribali amaliyotchilarni jalb etish yo'li bilan maqsadli ta'lim dasturlari, professional malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari, treninglar tashkil etish;

universitet talabalari amaliyoti va ishga joylashishiga har tomonlama ko'maklashish, potensial ish beruvchilar ro'yxatini shakllantirib borish va hamkorlik qilish, shuningdek, avvalgi bitiruvchilar salohiyatidan unumli foydalanishga qaratilgan "Karyera markazi" faoliyatini rivojlantirish;

bitiruvchilar malakasining ishlab chiqarish talablariga mos kelishini aniqlash, kadrlar tayyorlashda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar va ularni bartaraf qilish maqsadida har yili respublika miqyosida kadrlar buyurtmachilari o'rtasida milliy so'rovlar o'tkazish an'anasini yo'lga qo'yish.

Universitetning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash yo'nalishi doirasida:

universitet infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan, xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash va moliyaviy barqarorligi ta'minlash;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarning universitetda qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash;

Universitetni zamonaviy talablar asosida jahon infratuzilma standartlariga moslashtirish:

№	Infratuzilma turi	2026-yil	2028-yil	2030-yil	Xalqaro standart
1	Laboratoriyalar	1 ta / 500 talaba	1 ta / 300 talaba	1 ta / 150 talaba	1 ta / 150 talaba
2	ARM fondi	1 ta / 6 ta talaba	1 ta / 5 ta talaba	1 ta / 4 ta talaba	1 ta / 6 ta talaba
3	Kompyuterlar	1 ta / 10 talaba	1 ta / 5 talaba	1 ta / 3 talaba	1 ta / 3 talaba
4	Internet tezligi	100 Mbps	5 Gbps	10 Gbps	10 Gbps
5	Sport maydonlari	2 m ² / talaba	3 m ² / talaba	5 m ² / talaba	5 m ² / talaba

Universitetning 2026-2030-yillar uchun asosiy kirim manbalari bo'yicha prognoz (mlrd so'm):

№	Kirim manbai	2026	2027	2028	2029	2030
1	To'lov-kontrakt tushumlari	157.14	150	175	205	240
2	Xalqaro va xorijiy grantlar va loyihalar	5	20	25	30	35
3	Tadqiqot va konsalting xizmatlari	3	15	20	28	38
4	Ta'lim xizmatlari eksporti	0.1	10	15	22	30
5	Qo'shimcha ta'lim xizmatlari	0.2	12	18	25	34
6	Endaument jamg'armasi daromadi		5	8	12	18
7	Boshqa daromadlar	0.7	8	10	12	15
Jami kirim:		158,14	220	271	334	410

Universitetning 2026-2030 yillar uchun asosiy xarajatlar smetasi (mlrd so'm):

№	Xarajat turi	2026	2027	2028	2029	2030
1	Moddiy-texnik bazani rivojlantirish	80	90	100	110	120
2	O'qituvchilar va xodimlar ish haqi	100	115	130	150	170
3	Ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar	30	35	42	50	60

4	Talabalar uchun stipendiya va yordam	20	28	32	36	40
5	Kommunal va operatsion xarajatlar	15	17	19	21	23
6	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	12	15	18	22	25
7	Xalqaro hamkorlik va marketing	8	10	12	15	18
8	Boshqa xarajatlar	10	11	12	13	14
Jami xarajat:		280	321	365	417	470
Moliyaviy natija (kirim-xarajat):		-10	+5	+29	+58	+98

Universitet talabalari uchun to'lov-kontrakt miqdorlarini belgilash metodologiyasi

To'lov-kontrakt miqdorlarini belgilash formulasi:

$$P=C+M+Q+IP=C+M+Q+I$$

Bu yerda:

P – kontrakt narxi

C – bir talabaga to'g'ri keladigan xarajatlar

M – marketing va reklama xarajatlari

Q – sifat ko'rsatkichlari koeffitsiyenti

I – inflyatsiya va investitsiya komponenti

Bir talabaga to'g'ri keladigan xarajatlarni hisoblash modeli:

$$C = \frac{\sum Xi}{N} \times K$$

$\sum Xi$ – universitetning yillik xarajatlari

N – talabalar soni

K – koeffitsiyent (1.2-1.5 oralig'ida)

Universitetning moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi asosiy risklar va ularni kamaytirish choralari:

№	Risk turi	Ehtimolligi	Ta'siri	Kamaytirish choralari
1	Talabalar sonining kamayishi	O'rta	Yuqori	Dasturlarni diversifikatsiya qilish, marketing
2	Moliyaviy resurslarning qisqarishi	Yuqori	Yuqori	Ko'p manbali moliyalashtirish, zaxira fondi
3	Texnologik yangilanish	O'rta	O'rta	Doimiy modernizatsiya, IT-infratuzilma
4	Qonunchilik o'zgarishi	Past	Yuqori	Huquqiy monitoring,

				moslashuvchanlik
5	Raqobatning kuchayishi	Yuqori	Yuqori	Unikal ustunliklar, sifatni oshirish

Universitetni tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishi doirasida:

har bir kafedra kesimida ilmiy maktablar yaratish;

professor-o‘qituvchilarni ishga qabul qilish tanlovi raqamlashtiriladi, bunda vakant lavozimlar bo‘yicha nomzodlarni malaka talablari asosida saralash, mutaxassisligi bo‘yicha sinov darslarni tashkil qilish va yakuniy suhbat asosida ishga qabul qilish tartibini rivojlantirish;

universitetda institutsional tahlil, o‘z-o‘zini o‘rganish va asoslantirilgan takliflarni ishlab chiqish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish;

universitetda boshqaruv jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida optimallashtirish (“workflow” – ish jarayonlarini elektron boshqarish imkoni joriy etiladi);

ishga qabul qilish va yuqori lavozimlarga tayinlashda oliy ta’lim tizimi rivoji uchun o‘zining munosib hissasini qo‘shuvchi kadrlarni tanlash, ularning faoliyati, professional xususiyatlari, soha oldidagi alohida xizmatlarini adolatli va xolisona baholashni nazarda tutuvchi meritokratiya tamoyillarini qo‘llash;

rahbarlik lavozimlariga tayinlashda gender tengligi tamoyillariga rioya etish;

universitetda rahbarlik lavozimlariga zaxira kadrlarni shakllantirish va ularni maqsadli o‘qitish va tayyorlash ishlarini tashkil etish;

ish jarayonlarini tizimlashtirish maqsadida universitet doirasida inson resurslarini boshqarish bo‘yicha elektron platforma joriy etish (bunda kadrlarni tanlash, baholash, tayyorlash va rotatsiya qilish jarayonlari avtomatlashtiriladi hamda inson omili pasayadi);

universitetning boshqaruv xodimlari va professor-o‘qituvchilaridan talab etiladigan kompetensiyalar modelini (competency framework) ishlab chiqish;

malaka talablariga javob beradigan nomzodlarni saralab olish uchun ishga olishning zamonaviy usullari, xususan, test, yozma ish, kompetensiyalarni aniqlashga qaratilgan “competency-based interview”larni joriy etish;

xodim va professor-o‘qituvchilarni ishga olishda mehnat shartnomasiga qo‘shimcha “performance agreement” – samaradorlik kelishuvini tuzish;

universitet xodimi va professor-o‘qituvchisiga universitetni oldida turgan asosiy SMART maqsadlaridan kelib chiqib, eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilab berish tartibini joriy etish;

Xalqaro va mahalliy darajadagi kutubxonalar, jumladan, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi bilan Universitet axborot-resurs markazi o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'zaro integratsiyalashgan tizim yaratish.

6-bob. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar

Mazkur konsepsiyani amalga oshirish natijasida ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplarning ta'minlanishi, xususan, ta'limning uzluksizligi va izchilligi, ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik hamda demokratik xususiyatga ega bo'lishi asosida maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimlari, shuningdek, TOP-1000 reytingiga kiruvchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish imkoniyati yaratiladi hamda "Renessans ta'lim klasteri"ni tashkil etish uchun mustahkam institutsional asos vujudga keladi.

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali universitet 2030-yilgacha rivojlantirishda quyidagi natijalarga erishish nazarda tutilmoqda:

Renessans ta'lim universiteti negizida uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshiruvchi klaster faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Bunda:

maktabgacha ta'lim tashkiloti;

maktab;

Renessans ta'lim akademiyasi (*akademiyada yoshlarning chet tillari, tabiiy fanlar, robototexnika, IT va sun'iy intellekt sohalaridagi bilimlarini oshirish bilan birga, ularda mutaxassislik bilan birga amaliy kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirish, shu jumladan hunarmandchilik, dastgoh ishlari, tikuvchilik, 3D-modellashtirish, robototexnika, milliy hunarlar va ijodiy dizayn yo'nalishlari bo'yicha malaka va kasb berishga alohida e'tibor qaratiladi*);

universitet;

oliy ta'limdan keyingi ta'limning yagona uzluksiz tizimi yaratiladi.

Universitet 2030-yilga borib "Universitet 5.0" modeliga to'liq o'tishi natijasida ta'lim, ilm-fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalari tijoratlashtiriladi, sun'iy intellektga integratsiyalashgan ekotizimga aylanadi. Bitiruvchilar raqobatbardosh va ijtimoiy mas'ul kadrlar bo'ladi, boshqaruv raqamlashtiriladi va universitetning xalqaro nufuzi hamda hududiy rivojlanishga ta'siri mustahkamlanadi;

universitet boshqaruvi “Strategic Human Resource Management” tamoyili asosida amalga oshiriladi.

universitetda institutsional tahlil, o‘z-o‘zini o‘rganish va asoslantirilgan takliflarni ishlab chiqish bo‘yicha tarkibiy bo‘linma doimiy faoliyat olib boradi;

boshqaruv tizimi va o‘quv jarayonlari, ARM va hujjatlar aylanmasini elektronlashtirishni ta‘minlovchi “RTU elektron universitet” platformasida ishlovchi tizimga to‘liq o‘tiladi;

universitetdagi kafedralarning ilmiy salohiyati kamida 70 %, magistratura mutaxassisligi mavjud kafedralarning ilmiy salohiyati kamida 80 % ga yetkaziladi;

universitetda barcha ta‘lim shakllari (kunduzgi, part-time, masofaviy, kechki) bo‘yicha o‘qitish imkoniyati yaratiladi;

rivojlangan davlatlar universitetlari bilan qo‘shma ta‘lim dasturlari va ularning filiallari tashkil etiladi;

universitet QS va THE (Times Higher Education) reyting tizimlarida belgilangan talablarni bajarish orqali O‘zbekistonda TOP-10 talik, Markaziy Osiyoda TOP-30 talik, dunyoning TOP-1000 talik universitetlari reytingidan o‘rin egallaydi;

universitetda sun‘iy intellekt va raqamli innovatsiyalar laboratoriyasi (AI & Digital Innovation Lab) faoliyat olib boradi;

masofaviy ta‘limni rivojlantirish, barcha ta‘lim yo‘nalishlari uchun o‘quv kontentini tayyorlash, KPI tizimi, Universitet dars jadvali, “New-Admission” (qabul), “Raqamli kutubxona” platformalarining zamonaviy tizimi yo‘lga qo‘yiladi;

xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta‘limning ilg‘or standartlari joriy etiladi, jumladan, bosqichma-bosqich o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta‘limdan, amaliy ko‘nikmalar shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimiga o‘tiladi;

universitetda ta‘lim mazmuni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tariladi, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yiladi;

universitetning moliyaviy barqarorligi ta‘minlanadi;

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqa homiylik mablag‘lari hisobiga universitetda texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, “start up”, akselerator markazlari tashkil etiladi hamda ular tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini

tadqiq etuvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqiladi;

universitet professor-o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari oshishi, shuningdek, respublika ilmiy jurnallari xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishi ta'minlanadi;

universitet talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus asosida rivojlantiriladi;

universitet infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasi, xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilanadi;

ta'limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligi yo'lga qo'yiladi.